

PEDAGOG-PSIXOLOGLAR TARBIYAVIY ISH METODLARINING TEXNOLOGIK ASOSLARI

Choriyeva Durdona Anvarovna

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika
universiteti "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim"*

fakulteti Maktabgacha ta'lim nazariyasi va

metodikasi kafedrasi dotsenti, PhD

Choriyevadurdona76@gmail.com

RAXIMOVA LAYLO XAMIDJON QIZI

"Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim" fakulteti magistri

Zamonaviy ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonning murakkabligi, tarbiyalanuvchi va pedagoglar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ko'p qirrali tabiati, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlari va oilalar bilan bog'liq hamkorlik jarayonlaridagi nizolar pedagogik konfliktologiyani dolzarb va ilmiy-amaliy jihatdan muhim soha sifatida ko'rsatadi.

Pedagogik konfliktologiya – bu ta'lim va tarbiya jarayonlarida yuzaga keladigan nizolarni tahlil qilish, oldini olish va samarali boshqarish usullarini o'rganadigan ilmiy yo'nalishdir. U pedagogning professional faoliyati davomida yuzaga keladigan qarama-qarshi holatlarni boshqarish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Zamonaviy pedagogik amaliyot shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yuzaga keladigan pedagogik va ijtimoiy nizolarning ko'pligi nafaqat bolalarning rivojlanishiga, balki pedagoglarning motivatsiyasiga, ota-onalar bilan hamkorlikning sifatiga ham bevosita ta'sir qiladi. Shu sababli, pedagogik konfliktologiyani o'rganish dolzarb hisoblanadi, chunki u ta'lim-tarbiya jarayonining sifatini oshirish, pedagogik jarayonlarni optimallashtirish va hamkorlikni samarali tashkil etish imkonini beradi.

Pedagogik konfliktologiyaning dolzarbligi shuningdek quyidagi omillar bilan belgilanadi:

1. Ijtimoiy o'zgarishlar: Jamiyatdagi turli ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy o'zgarishlar maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasiga ta'sir qiladi, bu esa nizolarni oldini olish va ularni boshqarish zaruratini oshiradi.

2. Pedagogik jarayonning murakkabligi: Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilar, pedagoglar va ota-onalar o'rtasidagi kompleks tizim sifatida faoliyat yuritadi. Har bir subyektning manfaatlari va ehtiyojlari farqlanishi pedagogik konfliktlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

3. Oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti hamkorligining intensivligi: Ota-onalar bilan faol pedagogik hamkorlik pedagogik jarayonning samaradorligini oshiradi, biroq hamkorlikdagi muvofiqlik yetishmovchiligi nizolarni keltirib chiqaradi.

4. Tarbiyaviy jarayonda innovatsion yondashuvlar: Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlarni joriy etishda yuzaga keladigan qarama-qarshiliklarni boshqarish muhimdir.

Shu nuqtai nazardan, pedagogik konfliktologiya nafaqat nazariy jihatdan ilmiy ahamiyatga ega, balki amaliyotda pedagog, ota-ona va bolalar o'rtasidagi ijobiy va samarali muloqotni ta'minlashga xizmat qiladi. Bu soha pedagoglarni nizolarni oldindan aniqlash, ularni konstruktiv tarzda hal qilish va ta'lim-tarbiya jarayonini doimiy takomillashtirish ko'nikmalariga ega qilish imkonini beradi.

Pedagog-psixologlar tarbiyaviy ish metodlarining texnologik asoslarini ishlab chiqayotganlarida, tarbiya - uni baholab bo'lmaydi, degan fikrga asoslanadilar. Bu metodlar qo'llanilayotganda, birinchidan, tarbiyalanayotgan bolaning yosh va individual xususiyatlarini, ikkinchidan, shu bola a'zo bo'lgan bolalar jamoasining xususiyatlarini, nihoyat, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatiladigan muayyan aniq sharoitlarni hisobga olish zaruriyati tarbiya metodi deb pedagog o'qituvchi, murabbiyning tarbiyalanuvchilarida onglilik, iymon, e'tiqod va insoniy xulq-atvor qoida hormalarini shakllantirish maqsadida ularga pedagogik va psixologik ta'sir ko'rsatish usuliga aytiladi.

Shaxsning ijobiy yo'nalishini tarkib toptirish uchun maktab bolasining barcha vaziyat va holatlarda to'g'ri yo'l tutishini istashi hamda to'g'ri yo'l tutishi uchun uning nima qilishini bilishi, o'zi hurmat qiladigan kishilarning nima qilayotganlarini ko'rishi va o'zi ham to'g'ri xulq-atvorli bo'lishini mashq qilishi zarur. Psixologik tadqiqotlarda shu narsa aniqlanganki, axloqiy tushunchalarni o'zlashtirish juda murakkab jarayon bo'lib, unga maxsus rahbarlik qilishi talab etiladi. Bu ishlarni amalga oshirish uchun quyidagilarga amal qilish va e'tibor berish kerak.

Ishontirish tarbiya metodi sifatida. Bolalar axloqini, dunyoqarashini shakllantirishda ishontirish asosiy metodlardan biri hisoblanadi. Ishontirish orqali pedagog o'qituvchi bolalarda har tomonlama kompleks tarbiyani amalga oshiradi. O'ziga bo'lgan ishonchi natijasida talabalar kelajakda respublikamiz hayotiga o'zlarining shaxsiy ishtirokchiligini chuqur sezadilar va shunga yarasha bilim, ko'nikmalarni egallashga harakat qiladilar.

Ijobiy-shaxsiy namuna tarbiya metodi sifatida. Shaxsning rivojlanishida turli ta'sirlar, o'quv jarayoni va boshqa vositalardan tashqari tarbiyaning shaxsiy namunasi katta ahamiyatga ega. Bolalar balog'at yoshiga yetib, mustaqil hayotni boshlagunlariga qadar ko'pchilik sharoitlarda bilish, o'rganish jarayonida asosan bola ota-onaga, qo'ni-qo'shniga, doston yoki drama qahramonlariga taqlid qilishadi.

Mashq tarbiya metodi sifatida. Yaxshi, ijobiy odatlarga o'rgatishda axloqiy ko'nikmalarni hosil qilishda mashq metodining ahamiyati katta. Bunda bola ma'lum bir faoliyat bo'yicha biron bir vaziyatda ayrim harakatlarni takroran bajaradi.

Rag'batlantirish va jazolash tarbiya metodi sifatida. Intizomlilikni shakllantirishning klassik metodlaridan biri rag'batlantirish va jazolash metodi hisoblanadi. Tarbiyadagi rag'batlantirish va jazolash metodi o'quvchilardagi ijobiy xislatlarni rivojlantirishdagi ularning ijobiy fazilatlarini takomillashtirishda vosita bo'lmog' lozim. Rag'batlantirishning yozma, og'zaki yoki imo-ishoraviy shakllari qo'llaniladi. Imo-ishoralar bilan boshni qimirlatib, tabassum va yuz-qo'l harakatlari bilan ma'qullash, «barakalla», «ko'p yasha», «rahmat» va hokozolar.

Rag'batlantirishning yana bir turi mukofotlashdir. Tarbiya jarayonida **jazolash** ham katta ahamiyatga ega. Maktabda jazo choralari pedagog o'qituvchilar va maktab ma'muriyatining og'zaki tanbehi, guruh bolalarining o'rtasida ogohlantirish, uy vazifasini balartirish uchun darsdan keyin olib qolish choralari ko'riladi. Pedagog o'qituvchining, pedagog o'qituvchining **shaxsiy namunasi** o'quvchilar shaxsini tarkib toptirishda muhim ahamiyatga ega. Ma'qullash va qoralash, rag'batlantirish hamda jazolash bolaning xulq-atvorini boshqarish va tuzatishning haqiqiy vositasidir. Ma'qullash, rag'batlantirish xatti-harakatlarining to'g'ri motivlari va shakllarini mustahkamlash vositasi bo'lib xizmat qiladi. Qoralash, jazolash xatti-harakatlardagi salbiy qo'zg'alishlarni hamda noto'g'ri shakllarni tormozlab turish vositasidir.

Aqliy tarbiya. Mustaqillik bola shaxsining har tomonlama taraqqiy etishi uchun zarur bo'lgan barcha imkoniyatlarni vujudga keltiradi. Bolalarni mustaqil Vatanimizga sadoqat ruhida tarbiyalash ishi dastlab fan asoslari bilan qurollantirish yo'li bilan borishi lozim.

Estetik tarbiya. Estetik tarbiya dunyoni bilishga san'at asarlarini o'rganish orqali olib boriladi. San'at asarlarida kishilik jamiyatining g'oyaviy katta tajribasi aks ettirilgan. Shuning uchun eng yaxshi san'at asarlaridan foydalanib, bolalarni, obrazlar orqali, fikrlash yo'li bilan voqelikni tushunishga o'rgatish, ularning emotsiyasiga ta'sir qilish, istiqlol g'oyasi, mafkurasini amalga oshirish uchun bo'layotgan aktivlashga ularni rag'batlantirish zarur. Estetik tarbiya bolalarni san'atning biron tarmog'idagi turli ijodiy ishlarni boshqarishga jalb etib, ularning his-tuyg'ularini boyitib, xayolini va ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda katta rol o'ynaydi. Estetik tarbiya bolalarda tabiatdagi go'zalliklardan lazzat ola bilish hamda mehnatni va kundalik maishiy tushunishni, shu jumladan bo'sh vaqtni yanada go'zalroq o'tkazish qobiliyatini o'stirishga qaratilgan.

Mehnat tarbiya. Mehnat kishining va kishilik jamiyatining eng zarur yashash sharti. Mehnat va mehnat faoliyati bo'lmaganda, odamning o'zi ham bo'lmagan bo'lar edi, mehnat tarbiyasi vazifasiga kishini o'z-o'ziga xizmat qilishning birinchi

ko'nikmalari bolalikdan boshlanadi. Yuqorida qayd etilgan inson tarbiyasining tarkibiy qismlari darsda, darsdan tashqari tadbirlarni amalga oshirish orqali bajariladi.

Jinsiy tarbiya. Umuminsoniy tarbiyaning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri jinsiy tarbiya hisoblanadi. O'smirlik davri insonni bolalikdan yoshlikka va boshqa davrlarda o'zining keskin, biroz murakkab kechishi bilan farq qiladi. Bu davr psixologik-pedagogik adabiyotlarda «o'qitish davri», «og'ir davr», «inqiroz davri» kabi iboralar bilan ataladi. Bunday davrda o'smirlarga nazoratni kuchaytirish kerak. Ota-onalar, pedagog o'qituvchilar, pedagog o'qituvchilar, shifokorlar tomonidan turli-tuman chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali jinsiy tarbiya beriladi. O'smirlik yoshidan boshlab tarbiyaning yangi omili o'z-o'zini tarbiyalash vujudga keladi. Bolalar o'zlarini ijtimoiy qimmatga ega bo'lgan shaxs xislatlarini tarkib toptirish sohasida xulq-atvordagi kamchiliklarga salbiy xislat va sifatlarga barham berish sohasida ongli ravishda muntazam ishlay boshlaydilar. Odam yuksak darajada o'z-o'zini idora qiluvchi, o'z-o'zini kamol toptiruvchi birdan-bir tizimdir.

Pedagog o'qituvchi bolalarning o'z-o'zini tarbiyalashiga rahbarlik qilishda 4 vazifani ko'zda tutishi kerak.

Birinchidan, bola o'zida shaxsning ijobiy xislatlarini taraqqiy ettirishga va o'z xulq-atvoridagi yomon tomonlardan xalos bo'lishga intilish istagini uyg'otish kerak.

Ikkinchidan, bolaga o'z shaxsiga tanqidiy munosabatda bo'lishda o'z xulq-atvoridagi xususiyatlarini diqqat bilan odilona tushunib olishda, o'z kamchiliklarini yaqqol ko'rishda, o'z nuqsonlarini fahmlab yordamlashishdan iborat.

Uchinchidan, pedagog o'qituvchi o'z-o'zini tarbiyalash dasturini tuzishda, shaxs xulq-atvori xislatining xiisusiyatlarini (o'zini tuta bilish; qat'iylik, mardlik va hokazo).

To'rtinchidan, pedagog o'qituvchi o'z-o'zini tarbiyalashning oqilona yo'llarini ko'rsatib beradilar, bolani shaxsning ijobiy xislatlarini tarkib toptirish va kamchiliklarga barham berishga oid maqsadga muvofiq va samarali ishlash usullari bilan qurollantiradilar.

«**Tarbiyasi qiyin**» bolalar pedagogik qarovsizlik natijasidir. L.S.Vigotskiyning fikricha, «qiyin» o'smir hayoti munosabatlar xarakterining natijasidir. Bular, avvalo, qaysar, injiq bolalar, ularni qiziqarli faoliyat turiga tortish ularni tarbiyalashning asosiy usullaridan biridir. Ularning ma lum bir qismi intizomsiz, qo'pol bolalardir. Ularning faolligini maqsadga muvofiq o'zgartirish, ularga ba'zi huquqlarni besh yo'li bilan ularga ta'sir o'tkazish mumkin. Psixologiyada «**tarbiyasi qiyin**» bolalarning bir qancha klassifikatsiyalari mavjud.

Birinchi guruh - ijtimoiy salbiy mustahkam qarashlarga ega bolalar.

Ikkinchi guruh - qonunbuzarlarga taqlid qiluvchilar.

Uchinchi guruh - ijobiy va salbiy xulq-atvor steriotoifalari o'rtasida ikkilanuvchi, o'z xatolarini tushunuvchi bolalar.

To'rtinchi guruh - irodali bolalarga bo'sunuvchilar.

Beshinchi guruh - qonunbuzarlik yo`liga tasodifan kirib qo`lganlar.

Shuni aytish kerakki, tarbiyasi og`ir bolalar uchun ular yashayotgan muhit, oila, ular o`qiyotgan jamoa va guruhning roli juda katta.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik konfliktologiya pedagogik jarayonning sifatini oshirish, maktabgacha ta'lim tashkiloti samarali tashkil etish va pedagoglarning professional malakasini rivojlantirish bilan bevosita bog`liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Axmedova M.T. Pedagogik konfliktologiya O`quv qo`llanma 2020 y.
2. Чориева, Д. А. (2021). МЕТОДЫ И ПРИЕМЫ РАБОТЫ С АГРЕССИВНЫМИ ДЕТЬМИ. In Человек в современном мире: пространство и возможности для личностного роста (pp. 152-161).
3. Choriyeva, D. (2023). OILA VA MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA AMALGA OSHIRILADIGAN IJTIMOIIY VAZIFALAR. Talqin va tadqiqotlar, 1(32).
4. Choriyeva, D. (2022). TARBIYACHINING PEDAGOGIK MAHORATINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK TEXNIKANING ROLI. Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: Nazariy va amaliy izlanishlar, 1(24), 101-103.
5. Чориева, Д. А. (2022). ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ДИАГНОСТИКА ФАОЛИЯТИ БИЛАН ШУҒУЛЛАНУВЧИ ШАХСГА ҚЎЙИЛАДИГАН ТАЛАБЛАР: <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.9.09.014> Чориева Дурдона Анваровна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Мактабгача таълим факультети Мактабгача таълим психологияси ва педагогикаси кафедраси педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), в. б. доценти. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (9), 99-102.
6. Chorlieva, D. A. BO'LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY MAHORATLARINI OSHIRISH YO'LLARI. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI, 385.
7. Durdon, C. (2023, December). KREATIVLIK ORQALI BOLALARNING QOBILYATLARINI OSHIRISH. In " Conference on Universal Science Research 2023" (Vol. 1, No. 12, pp. 302-305).
8. Durdon, C. (2023). BOLALARDA KREATIVLIK QOBILYATINI RIVOJLANTIRISH. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 1(5), 265-270.
9. Sheraliyevna, O. H. (2023). TARBIYA-IJTIMOIIY HODISA. Лучшие интеллектуальные исследования, 11(1), 130-132.
10. Ochilova, X. S. (2025). MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI. Inter education & global study, (1), 319-324.